



**1950–1960-YILLARDA YERLARNI O'ZLASHTIRISH VA JAMOA
XO'JALIKLARINING SHAKLLANISHI: FARG'ONA VODIYSI VA
NAMANGAN MISOLIDA**

Mexmonxo'jayev Oybek Abduxakimxo'ja o'g'li

“University of Business and Science” mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: mehmonxojayevoybek@gmail.com

Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n yilliklar (1950-1960-yillar) O'zbekiston SSR iqtisodiyotida agrar sohani keskin harakatlantirish davri bo'ldi. Sobiq Ittifoq rahbariyati paxta mustaqilligiga erishish va xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida butun e'tiborni yangi yerlarni o'zlashtirish (xususan, cho'l va adir hududlarini) hamda irrigatsiya tizimlarini qurishga qaratdi. Bu davrda "kolxoz" (jamoaxo'jaligi) va "sovxoz" (davlat xo'jaligi) tizimi qishloq xo'jaligining mutlaq ustun shakliga aylandi. 1950-yillarning boshidan e'tiboran o'zlashtirilmagan qo'riq yerlarni qishloq xo'jaligi oborotiga kiritish bo'yicha ulkan davlat dasturlari qabul qilindi.

Arxiv ma'lumotlari va tarixiy manbalarga ko'ra, 1946–1965-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida jami **qariyb 600 ming gektar** yangi sug'oriladigan yerlar ishga tushirildi.

Vodiyning markaziy qismlarida dehqonchilik qilish uchun yaroqsiz deb hisoblangan hududlarga e'tibor qaratildi. Xususan, 1953–1963-yillar oralig'ida **Markaziy Farg'ona cho'llarida jami 72,4 ming gektar** yer o'zlashtirildi. Namangan viloyati (jumladan Chortoq va Yangiqo'rg'on tumani hududlari) tog'oldi zonalarida joylashgani uchun bu yerda lalmikor yerlarni sug'oriladigan yerlarga aylantirish ishlari jadal ketdi. Katta Namangan kanali va boshqa nasos stansiyalarining qurilishi o'n minglab gektar adir yerlariga suv olib chiqish imkonini berdi.

1950-yildagi kolxoz islohoti: O'zbekistonda mavjud bo'lgan minglab kichik artellar va kolxozlar birlashtirildi. Manbalarga ko'ra, 1950-yil avgustiga kelib respublika bo'yicha ularning o'rniga **752 ta yirik, yiriklashtirilgan kolxoz** vujudga keldi.

Yuqorida tilga olingan 1953–1963-yillarda Markaziy Farg'ona cho'llarining 72 ming gektardan ortiq qismi o'zlashtirilishi hisobiga vodiya sof yangi yerlar negizida **16 ta yangi kolxoz** va **2 ta yangi yirik sovxoz** barpo etildi. Namangan viloyatida yer o'zlashtirish va kolxozlashtirish ma'muriy islohotlar bilan chambarchas bog'liq kechdi. Aynan 1950-yilda o'zlashtirish ishlarini boshqarishni qulaylashtirish maqsadida Namangan viloyati tarkibida **Chortoq tumani** tuzildi (shuningdek, 1952-yilda Zadaryo tumani ham ochildi).



Biroq yiriklashtirish siyosati sababli 1959-yilda bu tumanlar vaqtincha tugatildi, hatto 1960-yil 25-yanvarda Namangan viloyatining o'zi ham tugatilib, hududi Andijon va Farg'ona viloyatlariga qo'shib yuborildi (1967-yilda qayta tiklangan). Bu holat kolxozlarning markazlashuviga ham bevosita ta'sir qildi. 1950–1953-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan Namangan viloyatining Chortoq (Yangiqo'rg'on bilan chegaradosh) hududidagi kolxozlarda chuqur ilmiy-etnografik safarlar uyushtirildi. O.A.Suxareva va M.A.Bekjonovalarning tadqiqotlarida **Oyqiron qishlog'i** misolida yosh kolxozlarning ijtimoiy hayoti, yer egaligi va mehnat jarayonlari hujjatlashtirildi. Bu jamoa xo'jaliklariga asosan urushdan qaytgan dehqonlar, jalb qilingan ishchilar va mutaxassislar jalb etilgan edi. Bu yillardagi kolhoz-sovxozlarning ko'payishi va yangi yerlarning haydalishi ulkan gidrotexnik inshootlarning qurilishi fonida amalga oshdi. Chortoq kabi adir hududlarida "obihayotsiz" qishloq xo'jaligi imkonsiz edi. O'sha yillarda daryolar suvi hisobiga Katta Namangan kanali va uning tarmoqlari ishga tushirildi. Keyinroq Namangan viloyatida **Chortoq** va Eskar suv omborlari bunyod etildi. Ushbu sun'iy suv havzalari tog'lardan keladigan bahorgi toshqin suvlarni yig'ib, yoz faslida yuzlab kolxozlarni uzluksiz suv bilan ta'minlashga (ko'pincha paxtani sug'orishga) xizmat qildi. 50-60-yillarda tashkil etilgan kolhoz va sovxoqlar faqatgina ish joyi emas, balki qishloq xalqining to'liq ijtimoiy ta'minotchisiga aylantirilgan edi: Kolxoqlar yiriklashtirilgach, ularni boshqarish uchun o'qimishli rahbarlar kerak edi. Toshkent va Samarqandda kolhoz raislari, brigadirilar, MTS (Mashina-traktor stansiyalari) direktorlarini tayyorlash uchun 1-2 yillik maxsus kurslar ochildi.

Dastlab kolxozlarning o'z traktori yo'q edi. Ularga texnikani Mashina-traktor stansiyalari ijaraga berardi. 1958-yilda hukumat qarori bilan MTSlar tugatilib, texnikalar to'g'ridan-to'g'ri kolxozlarning o'ziga sotildi. Bu kolxozlarning mexanizatsiyalashuv darajasini keskin oshirdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 1950–1960-yillar hududiy geografiya va iqtisodiyotda eng katta o'zgarishlar davri hisoblanadi. Namangan adirlaridan tortib Markaziy Farg'ona qumtepalliklarigacha bo'lgan joylarda davlat resurslari hisobiga yuzlab ming gektar yer qishloq xo'jaligi oborotiga kiritildi. Ushbu maydonlarda tashkil etilgan yuzlab yirik kolxoqlar va yangi sovxoqlar bugungi O'zbekistonning zamonaviy fermerlik va agrosanoat komplekslari uchun poydevor, hududiy aholi punktlari kengayishi uchun esa asosiy drayver bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R-837-fond, 32-ro'yxat (O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti qarorlari,



1950–1960 yy.).

2. R-2605-fond (O‘zbekiston SSR Suv xo‘jaligi vazirligi hujjatlari).

Народное хозяйство Узбекской ССР в 1958 году: Статистический ежегодник. – Ташкент: Госстатиздат, 1959.

O‘zbekiston yangi tarixi. Ikkinchi kitob: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.

Аминова Р. Х. *Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1940–1960 гг.).* – Ташкент: Фан, 1982.

Сухарева О. А., Бикжанова М. А. *Прошлое и настоящее селения Айкыран.* – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955. (Aynan Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlari kolxozlari hayoti haqida fundamental asar).

G‘ulomov P. *O‘zbekiston geografiyasi.* – Toshkent: Universitet, 1996.

"Qizil O‘zbekiston" gazetasi (1950-yil aprel-may sonlari – Chortoq tumani tashkil etilishi haqidagi xabarlar).

"Namangan haqiqati" gazetasi arxiv sonlari (1950–1965 yy.)